



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G'.	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTIONAL AHAMIYATI	354
G'iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug'bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	404
Kodirova Xurshida Ismoilovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	409
Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich	
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

E-mail: abdurazzoqomonov344@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy mexanizmlari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi global raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, korxonalar faoliyatida innovatsion yondashuvlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashda samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish zarurati bilan izohlanadi. Maqolaning maqsadi – raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi institutsional, tashkiliy-iqtisodiy va texnologik mexanizmlarni aniqlash hamda ularning samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi innovatsion menejment tizimlarini raqamli muhitda rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan konseptual modelni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan mexanizmlarning korxonalarda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyati bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, innovatsion menejment, korporativ innovatsiyalar, strategik boshqaruv, raqamli iqtisodiyot, data-driven boshqaruv, sun'iy intellekt, raqamli platformalar, raqobatbardoshlik, samaradorlik indikatorlari.

Аннотация. В данной научной статье комплексно исследуются теоретико-методологические основы и практические механизмы развития систем инновационного менеджмента в условиях цифровой трансформации. Актуальность исследования обусловлена ускорением процессов цифровизации, ростом потребности предприятий в инновационных подходах и необходимостью формирования эффективных систем управления для обеспечения конкурентоспособности. Цель статьи заключается в выявлении институциональных, организационно-экономических и технологических механизмов, способствующих совершенствованию систем инновационного менеджмента в условиях цифровой трансформации, а также в научном обосновании их эффективности. Научная новизна исследования состоит в разработке интегрированной концептуальной модели развития систем инновационного менеджмента в цифровой среде. Практическая значимость определяется возможностью внедрения предложенных механизмов в процессы организации и управления инновационной деятельностью предприятий.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инновационный менеджмент, корпоративные инновации, стратегическое управление, цифровая экономика, data-driven управление, искусственный интеллект, цифровые платформы, конкурентоспособность, показатели эффективности.

Abstract. This scientific article comprehensively examines the theoretical and methodological foundations as well as the practical mechanisms for developing innovation management systems in the context of digital transformation. The relevance of the study is determined by the rapid acceleration of digitalization processes, the growing need for innovative approaches in enterprise management, and the necessity of establishing effective management systems to enhance competitiveness. The objective of the article is to identify the institutional, organizational-economic, and technological mechanisms that facilitate the improvement of innovation management systems under digital transformation and to provide a scientific justification for their effectiveness. The scientific novelty of the study lies in the development of an integrated conceptual model for advancing innovation management systems within a digital environment. The practical significance is reflected in the potential application of the proposed mechanisms to improve the organization and management of innovation activities in enterprises.

Keywords: digital transformation, innovation management, corporate innovation, strategic management, digital economy, data-driven management, artificial intelligence, digital platforms, competitiveness, performance indicators.



KIRISH

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida chuqur strukturaviy o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari korxonalar faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishning yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Raqamli transformatsiya – bu faqat texnologik yangilanish emas, balki biznes jarayonlarini tubdan qayta tashkil etish, boshqaruv yondashuvlarini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanish strategiyalarini joriy etish bilan bog'liq kompleks jarayon hisoblanadi [1]. So'nggi yillarda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, blokcheyn va IoT (Internet of Things) kabi texnologiyalar innovatsion menejment tizimlarining ajralmas elementiga aylanib bormoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylangan. Turli tadqiqotlarga ko'ra, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mehnat unumdorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion menejment tizimlari korxonalarning tez o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashuvchanligini ta'minlab, strategik ustunlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [2]. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarni samarali boshqarish raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

2023–2025-yillar oralig'ida global miqyosda raqamli iqtisodiyotning ulushi keskin oshib, ayrim rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 50–60 foizigacha yetgani qayd etilmoqda [3]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalariga global investitsiyalar hajmi 2024-yilda yuzlab milliard dollarni tashkil etgani kuzatilmoqda. Bu esa innovatsion menejment tizimlarini yangi bosqichga olib chiqib, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) modelining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalar nafaqat texnologik yangilanishga, balki tashkiliy tuzilma, korporativ madaniyat va boshqaruv mexanizmlarini ham qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda (1-jadval).

1-jadval
Raqamli transformatsiya va innovatsion menejment o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik¹

No	Asosiy tushuncha	Mazmuni	Innovatsion menejmentga ta'siri
1	Raqamli transformatsiya	Raqamli texnologiyalar asosida biznes jarayonlarni qayta tashkil etish	Boshqaruvning yangi shakllarini shakllantiradi
2	Innovatsion menejment	Innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va tijoratlashtirishni boshqarish	Raqamli vositalar orqali samaradorlik oshadi
3	Raqamli platformalar	Integratsiyalashgan axborot tizimlari va servislar majmui	Qaror qabul qilish tezligini oshiradi
4	Sun'iy intellekt	Avtomatlashtirilgan tahlil va prognozlash texnologiyasi	Strategik qarorlar sifatini yaxshilaydi
5	Big Data	Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish tizimi	Data-driven boshqaruvni ta'minlaydi

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish mexanizmlari turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo'lib, ular asosan strategik boshqaruv, ochiq innovatsiyalar modeli, bilimlar boshqaruvi va raqamli platformalar integratsiyasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar ko'pincha raqamli transformatsiya va innovatsion menejment tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks yondashuv asosida yetarli darajada ochib bermaydi. Bu esa mazkur yo'nalishda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston kontekstida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Xususan, mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining YAIMdagi ulushi 2024-yilda 2,1 foizga yetgani va IT xizmatlar eksporti 1 milliard AQSh dollaridan oshgani kuzatilmoqda [4]. Shu bilan birga, IT Park Uzbekistan rezidentlari soni 2024-yilga kelib 2 800 dan ortib, unda 38,6 ming dan ziyod mutaxassis faoliyat yuritayotgani qayd etilgan. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida IT xizmatlar eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, 300 ming dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [5]. Ushbu jarayonlar mamlakatda innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish uchun zarur institutsional va texnologik asoslar yaratilayotganini ko'rsatadi hamda mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

1 Muallif ishlanmasi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya va innovatsion menejment tizimlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu ikki tushuncha integratsiyalashgan holda keng tadqiq etilmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion menejment tizimlarining samaradorligi ko'p jihatdan raqamli texnologiyalarning joriy etilish darajasi va ularning boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar va konseptual qarashlarni tizimli tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlardan biri D. Schallmo raqamli transformatsiyani korxonalarining biznes modellari, jarayonlari va tashkiliy tuzilmalarini kompleks o'zgartirishga qaratilgan strategik jarayon sifatida talqin qiladi [6]. Uning fikricha, innovatsion menejment tizimlari raqamli ekotizimlar va platformalar bilan integratsiyalashgandagina samarali ishlaydi hamda bu jarayon korxonalarining raqamli yetuklik darajasini belgilaydi. Shuningdek, J. Gonzalez-Varona va hammualiflarining tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes subyektlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun tashkilot ichidagi kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan [7]. Ular innovatsion menejmentni rivojlantirishda bilimlar almashinuvi va tashkiliy o'rganish muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

Bundan tashqari, P. Makowski innovatsion menejment jarayonlarini avtomatlashtirish va sun'iy intellekt bilan integratsiyalashuvini o'rganib, "Innovation–Automation–Strategy" konsepsiyasini ilgari suradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, innovatsiyalarni boshqarish inson omili, texnologik infratuzilma va strategik boshqaruvning uyg'unlashuvi orqali samarali amalga oshiriladi [8]. Yana bir xorijiy tadqiqotchi Y. Sekaki o'zining bibliometrik tahlillarida sun'iy intellektning menejment tizimlaridagi roli keskin ortib borayotganini ko'rsatib, innovatsion menejmentning yangi bosqichi aynan AI va data-driven yondashuvlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [9].

MDH mamlakatlari olimlari ham ushbu yo'nalishda sezilarli ilmiy natijalarga erishgan. Jumladan, E. Litau innovatsion loyihalarni boshqarishda raqamlashtirish va inson markazlashgan yondashuv (human-centricity) konsepsiyasining ahamiyatini asoslab beradi [10]. Uning fikricha, raqamli transformatsiya innovatsion menejment tizimlarida barqaror rivojlanish va qiymat yaratishning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mahalliy va mintaqaviy olimlar qarashlariga murojaat qiladigan bo'lsak, N. Raxmonqulova raqamli transformatsiyaning menejment jarayonlaridagi ahamiyatini tahlil qilib, u tashkilot samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi [11]. Xuddi shuningdek, S. Yuldashev o'z tadqiqotlarida raqamli transformatsiya menejment strategiyalarining tubdan o'zgarishiga olib kelishini, an'anaviy boshqaruv usullari zamonaviy sharoitda yetarli samara bermasligini qayd etadi [12].

Yana bir mahalliy olima D. Safarova innovatsion menejment va raqamli transformatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qilib, innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv zarurligini asoslab beradi [13].

O'zbekistonlik taniqli iqtisodchi olim Q. Abduraxmanov esa raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi mehnat bozori, inson kapitali va boshqaruv tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishda inson kapitalining transformatsiyasi va intellektual resurslardan samarali foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega [14].

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish mexanizmlarini kompleks, tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida o'rganish yetarli darajada chuqur yoritilmagan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, inson kapitali va strategik boshqaruv elementlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida yagona konseptual modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, innovatsion menejment tizimlarini raqamli transformatsiya sharoitida rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish mexanizmlarini kompleks o'rganish maqsadida tizimli, institutsional va komparativ yondashuvlar uyg'unligidan foydalanildi. Xususan, ilmiy bilishning induksiya va deduksiya usullari orqali nazariy qarashlar umumlashtirildi, statistik tahlil yordamida 2023–2025-yillarga oid makro va mikroiqtisodiy



ko'rsatkichlar (raqamli iqtisodiyot ulushi, IT xizmatlar hajmi, innovatsion faoliyat indikatorlari) baholandi, ekonometrik modellashirish asosida raqamli transformatsiya omillari bilan innovatsion menejment samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi. Shuningdek, case-study usuli orqali ilg'or xorijiy va mahalliy korxonalar tajribasi tahlil qilinib, benchmarking yondashuvi orqali ularning natijalari qiyoslandi hamda ekspert baholash usuli yordamida taklif etilayotgan boshqaruv mexanizmlarining amaliy qo'llanilishi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilish ko'rsatadiki, zamonaviy korxonalarda boshqaruv samaradorligi tobora ko'proq raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, ma'lumotlardan foydalanish sifati va innovatsion faoliyatni tizimli tashkil etish bilan belgilanmoqda. Tahlil natijalari global va milliy miqyosdagi statistik ma'lumotlar asosida olib borildi hamda quyidagi asosiy yo'nalishlar kesimida baholandi: raqamli infratuzilma rivoji, innovatsion faoliyat samaradorligi, boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasi va institutsional omillar.

Birinchidan, global miqyosdagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya bozori 2022-yilda 731 mlrd AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2023–2030-yillar oralig'ida o'rtacha yillik o'sish sur'ati **26 %** atrofida prognoz qilinmoqda. Ushbu tendensiya innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning hal qiluvchi rol o'ynayotganini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha **20–30 %** ga oshgan, operatsion xarajatlar esa **15–25 %** ga kamaygan [15]. Bu esa innovatsion menejment tizimlarining iqtisodiy samaradorligini bevosita oshiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, innovatsion menejment tizimlarining samaradorligi korxonalarda data-driven boshqaruv modelining joriy etilishi bilan uzviy bog'liq ekanini aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanayotgan tashkilotlarda strategik qarorlar qabul qilish tezligi **30–40 %** ga oshgan. Bu esa innovatsion menejment tizimlarida qarorlar qabul qilish mexanizmlarining transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ochiq innovatsiyalar modeli asosida tashqi bilim va texnologiyalarni jalb qilgan korxonalarda yangi mahsulotlarni bozorga chiqarish muddati o'rtacha **25–35 %** ga qisqargani aniqlangan [16].


Uchinchidan, tashkiliy va institutsional mexanizmlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishda moslashuvchan boshqaruv (agile management) va platformaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli platformalar asosida faoliyat yurituvchi korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligi an'anaviy korxonalarga nisbatan yuqori ekanini kuzatilgan. Bu esa innovatsion menejment tizimlarida vertikal boshqaruvdan gorizontaal va tarmoqli boshqaruvga o'tish zaruratini yuzaga keltiradi.

To'rtinchidan, inson kapitali va raqamli kompetensiyalar innovatsion menejment tizimlarining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, yuqori malakali IT mutaxassislari mavjud korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligi **1,5–2** barobar yuqori bo'ladi. Bu esa innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishda bilimlar boshqaruvi (knowledge management) va uzluksiz ta'lim tizimlarining ahamiyatini oshiradi.

Beshinchidan, raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion menejment tizimlarining samaradorligi ko'p darajali mexanizmlar orqali ta'minlanishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlar quyidagilardan iborat:

- texnologik mexanizmlar (AI, IoT, Big Data integratsiyasi);
- tashkiliy mexanizmlar (agile boshqaruv, loyiha asosidagi boshqaruv);
- institutsional mexanizmlar (normativ-huquqiy baza, davlat qo'llab-quvvatlashi);
- iqtisodiy mexanizmlar (investitsiyalar, innovatsion grantlar);
- ijtimoiy mexanizmlar (inson kapitali va innovatsion madaniyat).

Mazkur mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi innovatsion menejment tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlaydi hamda korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi.


 1. Raqamli iqtisodiyot ulushi va uning YAIMdagi hisssasi
(2019–2025-yillar)

 2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida xizmatlar hajmi
(2019–2025-yillar, trln so'm)

 1-rasm. Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish: statistik ko'rsatkichlar²

O'zbekiston kontekstida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatda raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish bo'yicha muhim natijalarga erishilgan. Jumladan, 2023-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bandlar soni 87,8 ming kishiga yetib, 2020-yilga nisbatan sezilarli o'sish qayd etilgan. 2025-yilga kelib esa internet tezligi 7 baravar oshib, mamlakat global reytinglarda sezilarli darajada yuqorilagan. Shu bilan birga, xususiy IT markazlari soni 2025-yilda 609 taga yetib, **51 mingdan** ortiq mutaxassis tayyorlangan [17].

Normativ-huquqiy jihatdan esa, 2023–2025-yillarda qabul qilingan qaror va dasturlar (jumladan, raqamli infratuzilmani kengaytirish, elektron tijoratni rivojlantirish, IT-audit tizimini joriy etish) innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish uchun muhim institutsional asos yaratdi. Xususan, 2023-yilda mobil aloqa qamrovini **88 %** ga yetkazish, **50 ming km** optik tolali liniyalar qurish va elektron xizmatlarni kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Shuningdek, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar joriy etildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli transformatsiya va innovatsion menejment tizimlari o'rtasidagi integratsiya bosqichma-bosqich kuchayib bormoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, innovatsion menejment tizimlarini yanada takomillashtirish uchun institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish, korxonalarda raqamli kompetensiyalarni oshirish va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni samarali boshqarish faqatgina yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv mexanizmlarini kompleks ravishda transformatsiya qilishni talab etadi. Xususan, raqamli transformatsiya jarayonlari innovatsion menejment tizimlarining tarkibiy elementlari – strategik boshqaruv, tashkiliy tuzilma, inson kapitali va bilimlar boshqaruvi tizimlarini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan quyidagi omillarga bog'liq: raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) modelining joriy etilishi, sun'iy intellekt va ilg'or texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda korxonalarda innovatsion madaniyatning shakllanganligi. Shu bilan birga,

2 Muallif ishlanmasi.



innovatsion menejment tizimlari samaradorligini oshirishda ochiq innovatsiyalar modeli, platformaviy yondashuv va moslashuvchan boshqaruv (agile) usullarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslandi.

Olingan natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

birinchidan, raqamli transformatsiya innovatsion menejment tizimlarining evolyutsion rivojlanishini jadallashtiruvchi asosiy drayver hisoblanadi;

ikkinchidan, innovatsion menejment tizimlarining samaradorligi ularning integratsiyalashgan va ko'p darajali boshqaruv mexanizmlariga asoslanganligiga bog'liq;

uchinchidan, inson kapitali va raqamli kompetensiyalar innovatsion rivojlanishning asosiy resursi sifatida namoyon bo'ladi;

to'rtinchidan, innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishda davlatning institutsional qo'llab-quvvatlashi muhim omil hisoblanadi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Korxonalarda raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish va joriy etish – har bir korxona o'zining raqamli yetuklik darajasidan kelib chiqib, innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyani shakllantirishi zarur.

2. Data-driven boshqaruv tizimini keng joriy etish – qarorlar qabul qilish jarayonida katta ma'lumotlar, analitik vositalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

3. Inson kapitalini rivojlantirish va raqamli kompetensiyalarni oshirish – xodimlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish, IT ko'nikmalarini kuchaytirish va uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish zarur.

4. Ochiq innovatsiyalar modelini joriy etish – ilmiy-tadqiqot institutlari, startaplar va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion faoliyatni jadallashtirish mumkin.

5. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish – texnoparklar, innovatsion markazlar va raqamli platformalarni kengaytirish orqali innovatsion ekotizimni mustahkamlash lozim.

6. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – raqamli iqtisodiyot va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi qonunchilikni yanada rivojlantirish, xususan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va intellektual mulk sohalarida aniq mexanizmlarni belgilash zarur.

7. Moslashuvchan boshqaruv usullarini joriy etish – agile, scrum kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari innovatsion menejment tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion menejment tizimlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, global raqobat muhitida ustunlikka erishish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy-nazariy jihatdan innovatsion menejment konsepsiyasini boyitadi hamda amaliy jihatdan korxonalarda samarali boshqaruv tizimlarini joriy etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. *World Development Indicators Database*. – Washington, DC, 2025.
2. International Telecommunication Union. *Measuring Digital Development: Facts and Figures 2025*. – Geneva, 2025. – 45 p.
3. OECD. *Digital Economy Outlook 2024*. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 320 p.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. YAIM tahliliy ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5073447>
6. Schallmo D., Williams C., Boardman L. *Digital Transformation of Business Models: Best Practice, Enablers, and Roadmap*. // *International Journal of Innovation Management*. – 2017. – Vol. 21, No. 8. – 17 p.
7. González-Varona J., Acebes F., Villafañez F. *Digital Transformation and Innovation in SMEs: Organizational Capabilities Perspective*. // *Journal of Business Research*. – 2024. – Vol. 172. – 12 p.
8. Makowski P. *Innovation–Automation–Strategy: Artificial Intelligence in Innovation Management*. – 2021. – 14 p.
9. Sekaki Y. *Artificial Intelligence and Management Systems: A Bibliometric Analysis*. // *Technological Forecasting and Social Change*. – 2025. – Vol. 198. – 18 p.
10. Litau E. *Human-Centered Approach in Digital Transformation and Innovation Management*. // *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*. – 2020. – Vol. 6(3). – 13 p.
11. Raxmonqulova N. Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy jurnali. – 2023. – № 4. – B. 10–12.
12. Yuldashev S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment strategiyalarining transformatsiyasi // *Innovatsion*



- iqtisodiyot* jurnali. – 2024. – № 2. – B. 9–11.
13. Safarova D. Innovatsion menejment va raqamli transformatsiya integratsiyasi // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* jurnali. – 2023. – № 6. – B. 8–10.
 14. Abduraxmanov Q. *Raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori transformatsiyasi*. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022. – 256 b.
 15. World Intellectual Property Organization. *Global Innovation Index 2024*. – Geneva, 2024. – 400 p.
 16. Statista. *Digital Transformation Market Size Worldwide 2020–2025*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>